



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. 2025-yil 13-14-iyun: - Buxoro :

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

1.	O.X.Xamidov	- Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais;
2.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	D.Sh.Yavmutov	- Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor, a‘zo;
5.	A.T.Jurayev	- Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n, dotsent, a‘zo;
6.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
7.	B.N.Navruz-Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
8.	A.J.Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a‘zo;
9.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
10.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
11.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,a‘zo;

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

1.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais;
2.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	B.N.Navruz- Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
5.	A.J. Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a‘zo;
6.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
7.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
8.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,
9.	Z.S.Nurov	- Ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i, i.f.f.d,
10.	M.H.Qilichov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
11.	K.Sh.Yuldashev	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
12.	I.O.Davronov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
13.	O.O.Radjabov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
14.	E.A.Farmonov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Ushbu xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida moliyalashtirilayotgan ALM-202403110241-raqamli “Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida tashkil etildi.

4. Earl, A., & Hall, C. M. (2023). Nostalgia and tourism: Memory, meaning and motivation. *Tourism Geographies*, 25(1), 1–15.
5. Higginbotham, G. (2012). Genealogical tourism: A new trend. *International Journal of Heritage Tourism*, 7(3), 215–227.
6. Russell, D. W. (2008). In search of self: Nostalgia tourism and identity. *Journal of Heritage Studies*, 14(5), 431–445.
7. Schindler, R. M., & Holbrook, M. B. (2003). Nostalgia for early experience as a determinant of consumer preferences. *Psychology & Marketing*, 20(4), 275–302.
8. Smith, M., & Campbell, G. (2017). The art of remembering: Tourism and historical nostalgia. *Tourism and Cultural Change*, 15(4), 337–351.
9. Yegorenkova, L. I. (2019). Nostalgic tourism: Concept and development prospects. Moscow: Russian State University of Tourism and Service.

BUXORO DESTINASIYASINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MICE TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

*Kuvandikov Aziz Ravshanovich
Iqtodiyot va turizm fakulteti
mustaqil tadqiqotchisi
Buxoro davlat universiteti*

Ma'lumki, turizm iqtisodiyot uchun qo'shimcha va tunganmas manba. Shu bois har bir davlat o'zining imkoniyati va salohiyatiga tayangan holda turizmni yangi turlarini ishlab chiqib sayyohlarni jalb etishga harakat qiladi. Mamlakatimizda ham bu sohaga keng imkoniyatlar yaratilyapti va sohani barqaror rivojlantirish maqsadida "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Unga ko'ra 2019–2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirishda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama marketing ishlarini olib borishni takomillashtirish vazifasi qo'yildi.¹ O'tgan davr uchun Buxoro viloyatida ichki va kirish turizmini rivojlantirish strategiyasi 2030-yilgacha turistik yo'nalishlarini kengaytirish, turistik obyektlarni raqamlashtirish hamda shakllantirilgan yo'nalishlarga tashrif yo'nalishlarini kengaytirish nuqtai nazardan belgilab beradi. So'nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotimizning o'sish omillaridan biri sifatida boshqa turli tarmoqlarni ham rivojlantirish drayveriga aylandi. Ayniqsa yangi ish o'rinlari yaratishda ushbu soha beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda turizm industriyasi va xizmatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor berilmoqda.

2024 yil 10 oyi davomida 18 me'yoriy hujjat – Prezidentning 3 farmoni va 6 qarori, hukumatning 9 qarori tasdiqlandi.. O'zbekiston turizmi rivojlanish holatini tahlili ko'rib chiqilsa unga ko'ra o'tgan 8 oyda yurtimizga xorijdan 4 million 300 ming nafar turist kelgan, ulardan 1 milliard 400 million dollar tushum bo'lgan². Qo'shimcha dam olish kunlari va chegirma berilgani natijasida ichki sayyohlar soni 15 million nafarni tashkil qilib, o'tgan yilgiga qaraganda 2 barobarga o'sgan. Turizm infratuzilmasi ham izchil rivojlanmoqda. Joriy yilda 15 mingta yangi mehmon o'rinlari tashkil etilib, ularning soni 137 mingtaga yetdi. 540 ta dam olish va ko'ngilochar maskan barpo etildi, 70 ta turizm marshruti ochildi. Shuningdek, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi, yangi 23 ta samolyot olib kelindi, 20 ta xalqaro va 6 ta ichki qatnov yo'lga qo'yildi³. Samarqand aeroportida haftalik xalqaro reyslar 46 tadan 85 taga ko'paydi. 1 ming 300 ta zamonaviy avtobus xarid qilinib, 38 ta yo'nalish ochildi. 2022-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravarga oshgan (5,2 million, soha eksporti

¹ O'zbekistonda MICE turizmini barqaror rivojlanish-Xalimova F. N. TDIU, Turizm va servis kafedrasida katta o'qituvchi

² <https://www.uzbekembassy.in/ozbekiston-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi/?lang=uz>

³ <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823544>

– 1,6 milliard dollar). Ichki turizm dasturlari doirasida 11,5 million, shundan 1,5 million ehtiyojmand aholi, yoshlar va keksalar sayohatlari tashkil etilgan. O'zbekistonda turizmning barcha turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligi mutaxassislar tomonidan ta'kidlanmoqda¹. Shu bilan birga, hozirgi paytda mamlakatimizda turizmning samaradorligi yuqori baholangan bir turi bu, MICE – turizmi kabi turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. So'nggi yillarda mintaqalar va mamlakatlar o'rtasidagi biznes, madaniy va ilmiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda, bunda biznes turizmining ahamiyati ham katta bo'lmoqda. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon bozoriga integratsiyalashuvini ham biznes turizmini taraqqiy ettirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ishbilarmonlik aloqalari, texnologiyalar va ma'lumotlar almashinuvi, yangi bozorlarni o'zlashtirish, investitsiyalar va qo'shma loyihalar uchun sheriklar izlash, kompaniyalarni reklama qilish, kadrlarni o'qitish va korporativ madaniyatni joriy etish – bu MICE turizmidir. 2023 yil 27 iyulda qabul qilingan PQ-238 sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra 2024 yil 1 yanvardan:

- turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekistonga olib kelingan har bir turist uchun teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha rag'batlantiruvchi subsidiya ajratiladi;
- turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijdan Samarqand, Buxoro va Urganch aeroportlariga charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublikada kamida 5 kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida (20 noyabrdan 20 fevralgacha) esa 50 AQSh dollari ekvivalentida teng ulushlarda qoplab beriladi.

Shuningdek, 3 yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxona 2026 yil 31 dekabrgacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismi quyidagi miqdorlarda qoplab beriladi:

- 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalaridagi har bir xona uchun 40 million so'm;
- 4 va 5 yulduzli toifaga ega mehmonxonalaridagi har bir xona uchun 65 million so'm.

2026 yil 31 dekabrgacha dunyoning nufuzli mehmonxona brendlaridan (mehmonxona brendlarining top-50 va mehmonxona tarmoqlarining top-5 reytingiga kirgan) foydalanuvchi O'zbekiston rezidentlari bo'lgan tashkilotlarning royalti xarajatlari franchayzing to'g'risidagi shartnoma kuchga kirgan vaqtdan 3 yil mobaynida quyidagi miqdorda qisman moliyalashtiriladi:

- 3 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun – mehmonxonaning har bitta xonasi uchun yillik 200 AQSh dollari ekvivalentida;
- 4 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun – mehmonxonaning har bitta xonasi uchun yillik 400 AQSh dollari ekvivalentida;²
- 5 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun – mehmonxonaning har bitta xonasi uchun yillik 600 AQSh dollari ekvivalentida.

Hozirgi paytda mamlakatimizda turizmning samaradorligi yuqori baholangan bir turi bu, MICE – turizmi kabi turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. So'nggi yillarda mintaqalar va mamlakatlar o'rtasidagi biznes, madaniy va ilmiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda, bunda biznes turizmining ahamiyati ham katta bo'lmoqda. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon bozoriga integratsiyalashuvini ham MICE turizmini taraqqiy ettirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ishbilarmonlik aloqalari, texnologiyalar va ma'lumotlar almashinuvi, yangi bozorlarni o'zlashtirish, investitsiyalar va qo'shma loyihalar uchun sheriklar izlash, kompaniyalarni reklama qilish, kadrlarni o'qitish va korporativ madaniyatni joriy etish – bu MICE turizmidir. Shuningdek, biznes turizmi ko'rgazmalar va kongresslarda qatnashish vositasida kompaniyalarni birlashtirish va

¹ <https://www.imv.uz/uzbekistan-news/category/ozbekiston-yangiliklari/post-1682>

² <https://lex.uz/ru/docs/6549290>

rivojlantirish mexanizmlaridan biridir. O'zbekistonda so'nggi yillarda turizmning MICE aspekti jadal rivojlanayotganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonda MICE turizmini barqaror rivovlanish-Xalimova F. N. TDIU, Turizm va servis kafedrası katta o'qituvchi
2. <https://lex.uz/ru/docs/6549290>
3. <https://www.uzbekembassy.in/ozbekiston-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi/?lang=uz>
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823544>
5. <https://www.imv.uz/uzbekistan-news/category/ozbekiston-yangiliklari/post-1682>

TADBIR TURIZMI BUXORO DESTINATSIYASI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Omonova Nilufar Rahmon qizi

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası doktoranti

omonova.nilufar@gmail.com

Annotatsiya: *maqolada 2018–2024-yillarda Buxoro viloyatida mahalliy va xalqaro madaniy-ko'ngilochar tadbirlar hisobiga turistik oqim va iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi tahlil qilinadi. Rasmiy qaror va dasturlar tadbir turizmini tizimli rivojlantirish uchun me'yoriy asos yaratgan. Vaqt qatori, korrelyatsiya va tashrifchilarning sarf-xarajat modellari asosida festival haftalarida o'rtacha mehmonxona bandligi 24 foiz, sayyohlar xarajati esa 31 foizga o'sgani aniqlanadi. Natijalar Buxoro destinatsiyasining mavsumiylikni yengib o'tish va daromadni diversifikatsiya qilishida tadbir turizmi strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *tadbir turizmi, Buxoro, festival, jozibadorlik, davlat siyosati, turistik oqim.*

Kirish

Getz (2008) va Richards (2021) tadbir turizmini hududiy brending va iqtisodiy ko'paytiruvchi effektning yetakchi omili deb belgilaydi. O'zbekiston hukumati ham oxirgi yillarda mazkur yo'nalishga ustuvor e'tibor qaratdi. Xususan, 2018-yildagi 385-son VMQ "Madaniy-ko'ngilochar tadbirlar taqvimini shakllantirish tartibi to'g'risida" qarori markaziy va hududiy kalendarning huquqiy poydevorini qo'ydi. 629-son (08.10.2021 y.) qaror Buxoro mezbonlik qiluvchi Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini doimiylashtirdi. 543-son (28.09.2022 y.) qaror esa 2022–2026-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks ko'rsatkichlarni belgiladi. Nihoyat, PQ-399-son (22.11.2024 y.) Prezident qarori teatr hamda sahna san'atini qo'llab-quvvatlash orqali tadbirlar turini kengaytirishni nazarda tutadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: mazkur normativ hujjatlar ortidan Buxoro destinatsiyasi jozibadorligida o'zgarish bormikan? Ushbu tadqiqot bunga empirik javob topishni maqsad qildi.

Materiallar va usullar

Mazkur tadqiqot to'rt manba guruhiga tayandi. Birinchisi, "Buxoro viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi"ning 2018–2024 yillar bo'yicha oylik statistik byulletenlari bo'lib, ularda xorijiy hamda ichki sayyohlar soni, ularning yashash davomiyligi va o'rtacha sarfi ko'rsatiladi (N=84 oy). Ikkinchisi, Davlat statistika qo'mitasining "Hududiy turizm ko'rsatkichlari" ma'lumotnomasi; unda Buxoro bo'yicha bandlik, transport oqimi va xizmatlar hajmi yillik ko'rinishda berilgan. Uchinchi to'plam — Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali direksiyasining 2021, 2022 va 2023 yillar dagi operativ hisobotlari bo'lib, kunlik tashrif (turniket va chipta) ma'lumotlari, mehmon xarajatlari (anketa, n=2 416) hamda tadbir vaqtida yaratilgan ish o'rinlari (vaqtincha va doimiy) keltirilgan. To'rtinchisi — STR Global'ning Buxoro bozor paneli; 25 mehmonxonaga (2 746 xona) oid sutkalik bandlik (OCC) va o'rtacha xona narxi (ADR) ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Natijalar

2018-yilda Buxoroga 312 ming xorijiy va 523 ming ichki sayyoh tashrif buyurdi; bu ko'rsatkichlar o'sha yil uchun "bazaviy chiziq"dir. 2019-yilda mos ravishda +9 % va +8 % o'sish

Kadirova Shafoat Khabibulloevna. THE ROLE OF ONLINE TOUR OPERATORS IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN	71
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Istamova Robiyabegim Rivojiddin qizi. INKLYUZIV TURIZM O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-IQTISODIY INKLYUZIYANING VOSITASI SIFATIDA	77
Naimova Surayyo. AGROTURIZM OBYEKTARIDA INKLYUZIV INFRATUZILMANI YARATISH STRATEGIYALARI.....	82
Odil Radjabov, Dilshoda Toirova. PROSPECTS FOR IMPROVING ACCESS TO CULTURAL HERITAGE SITES IN BUKHARA FOR PEOPLE WITH DISABILITIES	87

3-SHO'BA. BARQAROR TURIZM: EKOLOGIK, MADANIY VA IQTISODIY MUVOZANAT SARI YO'L

ERMUKBAEVA INDIRA PULATBEK QIZI. INTEGRATING GREEN ECONOMY PRINCIPLES INTO SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT: A PATHWAY TO ECO-EFFICIENT ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	92
Khalimova Nigina Jafarbekovna, Umedova Madinabonu Shuxratovna. PRACTICE AND PROSPECTS FOR ACHIEVING INTERNATIONAL AND NATIONAL GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: THE ROLE OF TOURISM	95
Khayrullaeva Nilufarbegim Nematillo kizi. ENHANCING METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ECOTOURISM DEVELOPMENT: GLOBAL TRENDS AND UZBEKISTAN'S PERSPECTIVES.....	99
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich. MILLIY TURIZM LOYIHALARINI XALQARO BARQARORLIK STANDARTLARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI.....	103
Kuvandikov Aziz Ravshanovich. PERSPECTIVES OF SUSTAINABLE DEVELOPING OF KAGAN REGION AS TOURISM DESTINATION BASED ON MICE TOURISM	106
Maxmudova Nodira Uktamovna. O'ZBEKISTONDA TALABALAR TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH TAMOIYILLARIGA TA'SIRI	113
Kilichov Mukhriddin. MANAGING SUSTAINABLE TOURISM ON A STATISTICAL BASIS: SCIENTIFIC AND PRACTICAL OPPORTUNITIES OF THE SF-MST SYSTEM	116
Kurbonova Zebiniso Azimovna. THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE AND CREATIVE TOURISM IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM	123
Рузиева Махбуба Тулкиновна. АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ РАЙОНОВ ПО ТУРИСТИЧЕСКОМУ ПОТЕНЦИАЛУ: ОБЗОР НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОВ ОЦЕНКИ.....	131
Тойирова Сарвиноз Атоевна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА: РАЗВИВАЮЩИЕСЯ ПРАКТИКИ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	135
Yunusova Sohiba Abdulmamidovna. TURISTIK TADBIRKORLIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA TENDENTSIYALAR	140
Axmatova Moxigul Ergash qizi, Yusupova Dilnoza Ixtiyer qizi. KO'NGILOCHAR TURIZMNING MEHMONDO'STLIK SANOATIDAGI O'RNI	143
Сирлибеков Хабибулло Шакарбой углы. ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА	146

4-SHO'BA. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSIYALAR TURIZM SOHASIDA: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOL

Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	149
Axmatova Mohigul Ergash qizi. TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI SIFATINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI	151

Axmatova Mohigul Ergash qizi, Vafoyeva Mahliyyo Jamshidovna. TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUNIY INTELEKT, VA BLOCHCHEYN TEKNOLOGIYALARINING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	154
Farmanov E.A., Bozorova Saodatxon. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA YORDAMIDA TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH	157
Manzila Nuriddinovna Habibova. TURIZMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI	160
Salimova Sarvinoz Fazliddin qizi. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURISTIK MARSHRUTLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Tukhtaeva Khurshida Farkhodovna. THE IMPLEMENTATION OF INTELLENT TECHNOLOGIES IN THE TOURISM SECTOR WITHIN THE FRAMEWORK	169
Xabibullina Liliya Jaxonovna. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSIYALAR.....	175
Narzullaeva Gulchekhra Salimovna, Nuriddinova Gulsanam Bakhridin qizi. DIGITAL TAXATION SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY AND THEIR APPLICATION FEATURES IN UZBEKISTAN	178
Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li. RAQAMLI IQTISODIYOTDA UMUMIY RAQAMLI SOLIQ SOLISH TIZIMLARI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH XUSUSIYATLARI.....	182

5-SHO'BA. MAHALLIY TURIZM VA JAMOALARNING RIVOJLANISHI: ICHKI VA MINTAQAVIY IMKONIYATLAR.....

Baranov Alexander, Philippova Inga. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF KHAN TOURISM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	188
Azimov O.X. BUXORO VILOYATIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ZAMO NAVIY TENDENSIYALARI VA MODELLARI	192
Yuldashev Kamol Sharifovich, Davronov Istamxo'ja Olimovich. ROMITAN VA KOGON TUMANLARINING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ILMIY- TADQIQOTLARNING MAVZULARINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI	194
Ismoilova Xumora Jamoliddin qizi. THE ROLE OF NOSTALGIA TOURISM IN SHAPING SELF-IDENTITY:.....	198
Kuvandikov Aziz Ravshanovich. BUXORO DESTINASIYASINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MICE TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	201
Omonova Nilufar Rahmon qizi. TADBIR TURIZMI BUXORO DESTINATSIYASI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA	203
Yoriyeva Dilafroz Oltinovna. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	206
Umirov Jasurbek Temirquliyevich. CULTURAL DIVERSITY AND VALUES ISSUES IN INTERNATIONAL TOURISM	215
Teshayev N.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati ma'naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari falsafiy mohiyatini o'rganishning ahamiyati.....	217
Xamroyev Xalim Rozikovich. Barqaror rivojlanish va erkin iqtisodiy zonalar	219
Alisher Xudonazarovich Shadiyev. MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	227
Xalim-Zade Azizabonu Shuxratovna. O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR TAHLILI.....	234
Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi. MAMLAKATIMIZ SUG'URTA BOZORIDA INNOVATION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA XORIJIY TAJIRIBASI: MUAMMO VA YECHIMLAR	247